

“O‘zbektelekom” Aksiyadorlik Kompaniyasiga 2024-yilning 4-choragi davomida (1-oktabr-31-dekabr holatiga) jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlar to‘g‘risida

MA’LUMOTNOMA

“O‘zbektelekom” AKga joriy yilning 4 choragi davomida jami 1 280 ta jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari kelib tushgan bo‘lib, 3-chorak davomida (1 341 ta)ni tashkil etgan, ya’ni 5 % ga kamaygan.

Shulardan, simli internet tarmog‘iga ulanish bo‘yicha 375 ta (362 ta), simli internet sifati bo‘yicha 286 ta (341 ta), aloqa va axborot texnologiyalari xodimi xatti-harakatlari 29 ta (108 ta), mobil aloqa sifati 55 ta (52 ta), mobil aloqa tayanch (baza) stansiyalarini o‘rnatish yoki olib tashlash 79 ta (49 ta), simli internet xizmatining to‘lovlari 33 ta (28 ta), tabriklar, minnatdorlik va tashakkurnomalar 56 ta (24 ta) va turli masalalar bo‘yicha 367 ta (377 ta) murojaat kelib tushgan bo‘lib, barcha murojaatlarga o‘rnatilgan tartibda hamda belgilangan muddatlarda javob berilgan.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda joriy yilning 4-choragi davomida kelib tushgan barcha murojaatlarning qanoatlantirish darajasi 97 % tashkil etgan.

Shuningdek, Kompaniya rahbariyati tomonidan joylarda jismoniy va yuridik shaxs vakillari uchun sayyor qabullar tashkil etish bo‘yicha Kompaniyaning tegishli farmoyishi bilan tasdiqlangan sayyor qabullar jadvaliga asosan, joriy yil oktabr-dekabr oylarida Xorazm viloyatining Xonqa tumani, Farg‘ona viloyatining So‘x tumani, Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanlarida sayyor qabullar tashkil etildi.